

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Кулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Ҳавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Полвонов Козимбек	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД	
МАЪЛУМОТЛАР	10-15
<i>Xadjamuratova Matlyuba</i>	
МАКТАВГАЧА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИY ХИМОЯ QILISHGA INNOVATSION	
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI	16-21
Шовкатов Шокир Шовкат ўғли	
АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-31
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i>	
О'zbekiston RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR VA	
ULARNING AHAMIYATI	32-36

Пардаев Асрор	
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ	
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ	37-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи	
ЖАХОНДА ТИББИЙ СУФУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ	43-52

Рахманов Зафар	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ	
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ	53-62

Аминов Фазлитдин Баҳадирович	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ	
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	63-70

Курбонова Шаҳриноз Авазхоновна	
ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР	
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	71-81

<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI	82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
LOGISTIKA XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF	
THINGS)DAN FOYDALANISH	88-93

Сайдов Сарвар Хайруллоевич	
ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ	
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ	94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич	
ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҶАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ	
ЗАРУРИЯТИ	105111

Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ	
ТАЖРИБАСИ	112-119

<i>Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi</i>	
O'zbekiston IQTISODIYOTIGA XORJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
YO'LЛАRI	120-126

Temirova Feruza Sagdullayevna

XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK 127-132

Sharipova Shaxzoda Xasanovna

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 133-138

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Alimova Shahniza Hamidovna

НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК ГУРУХ СИФАТИДА 139-147

Asrakulova Adiba Nabieva

“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ 148-154

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Teshabayeva Dilfuza Muminovna

LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS MEDIA 155-160

Rustamov Ilhom Tursunovich, Inog'mjonova Robiya Rustamjon qizi

INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI 161-165

Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi

PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS 166-170

Djurakulova Elmira Suyunova

SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN 171-177

Dalieva Madina Khabibullaevna

THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR 178-183

Жўраева Ирода Ахмедовна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУФАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ 184-189

Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna

INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI BIRLIKLARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI 190-193

Irgasheva Shoxida Sadreddinovna

INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI 194-200

Tursunova Zarina Farxodovna

LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI ASOSIDA) 201-205

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich

PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF TURKOPHONES 206-212

Radjabova Hafiza Shukrulloyevna

INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI 213-220

Avezova Dilovar Salimovna

TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i>	
A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i>	
THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i>	
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i>	
CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS	252-258
<i>Сейтимбетова Айкумар Пулатбаевна</i>	
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилуу Махмудовна</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i>	
EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i>	
USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA	276-282

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i>	
O'ZBEKİSTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KİOTO KONVENSIYASINI JORİY ETİŞHNİNG HUQUQIY JİHATLARI VA JSTGA A'ZOLIKNING TA'SIRI	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i>	
SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLİYAVİY NAZORATI INSTITUTİNİNG MUHİM OMİLİ	293-298
<i>Mustanov Ilxom Abdıvalijonovich</i>	
BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JİHATLARI	299-304
<i>G'oyibov Jo'rabek Choriyevich</i>	
YOSHLAR MIGRATSİYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI	305-309

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Kuziyev Otobek Chuliyevich</i>	
TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHİM UCH BOSQICHI	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i>	
TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI	315-321
<i>Moydinova Elmira</i>	
APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuzা Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH	389-393

Azimova Hulkar Egamberdiyevna
Katta o'qituvchi, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining kredit portfelin samarali boshqarilishi masalalari bayon etilgan bo'lib, statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish bo'yicha 2020-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyada nazarda tutilgan kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash kabi ustuvor masalalarning ahamiyati izoglangan. Shuningdek maqolada bank tizimidagi kredit portfeli va muammoli kreditlar bilan ish olib borilishi hamda qonunchilik doirasida ko'rilibotgan chora-tadbirlarning analizi keltirilgan bo'lib, ushbu sohada kredit berish va qaytarib olish tizimining samarali faoliyatini ta'minlash borasida ba'zi tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kredit qo'yilmalari, kredit portfeli, likvidlik koefitsenti, bank balansi, bank aktivi, ssuda kapitali, risklarni boshqarish, bank tizimi

Azimova Hulkar Egamberdiyevna
Senior Lecturer, Karshi Engineering-Economics Institute

THE ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN EFFECTIVE LOAN PORTFOLIO MANAGEMENT

Abstract. In this article, the issues of effective management of the credit portfolio of commercial banks are described and analyzed based on statistical data. The importance of priority issues such as improving the quality of the credit portfolio and risk management provided for in the 2020-2025 strategy for the reform of the banking system in the Republic of Uzbekistan is noted. An analysis of the measures taken is presented, and some recommendations are given to ensure the effective operation of the lending and withdrawal system in this area.

Key words: commercial bank, loan deposits, loan portfolio, liquidity ratio, bank balance, bank asset, loan capital, risk management, banking system

Азимова Хулкар Эгамбердиевна
Старший преподаватель,
Каршинский инженерно-экономический институт

РОЛЬ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В ЭФФЕКТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ

Аннотация. В данной статье на основе статистических данных описаны и проанализированы вопросы эффективного управления кредитным портфелем коммерческих банков. Отмечается важность таких приоритетных вопросов, как повышение качества кредитного портфеля и управления рисками, предусмотренных в Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы. Также в статье дан анализ работы с кредитным портфелем и проблемными кредитами в банковской системе, и мерам, принимаемым в рамках законодательства, даны некоторые рекомендации по обеспечению эффективной работы системы кредитования и погашения. в этой области.

Ключевые слова: коммерческие банки, кредитные вложения, кредитный портфель, ликвидный коэффициент, банковский баланс, банковский актив, ссудный капитал, управление рисками, банковская система.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N10>

Kirish. Bank tizimini samaradorligini oshirishda kredit operatsiyalari muhim o'rinni tutadi. Bugungi kunda tijorat banklari kredit operatsiyalari bank daromadlarini shakllantiruvchi faoliyat bo'lganligi sababli kredit portfelining sifat darajasining barqarorligini ta'minlash banklarning asosiy vazifalari sanaladi. Kreditlash tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turi hisoblanadi, chunki tijorat banklari kredit portfeli sifatining pasayishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi, ya'ni muddati o'tgan kreditlarning kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'ining oshishi bankning likvidligini keskin pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham tijorat banklari kredit portfelini samarali tarzda boshqarish xo'jalik sub'ektlarining kredit mablag'lari bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Kelgusida ham bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish masalalari tarkibida bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish nazarda tutilgan [1]. Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, ulardan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yurituvchi sub'yeqtalar miqdorining ko'payishi, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish, ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash vazifalari banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borishni dolzarb masala ekanligini asoslab beradi. Kredit portfelidagi har bir kredit bo'yicha o'z vaqtida nazorat olib boorish va nazorat natijasida muammoli kreditlarni qaytarish yoki konsul'tativ ko'rinishdagisi ishlar olib borilsa, kredit portfelining risklilik darajasi kamayadi. Kreditlar muammoli kreditlarga aylanmasdan ularni ta'minoti garovga olingan mulkni sotuvga qo'yish yoki kreditni kafolatlangan shaxslardan o'z majburiyatlarini bajarishini talab etishi kerak. [2] Bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy nazorat qilib borish kuzatib borish muhimligini asoslaydi. Ayni paytda kredit portfeli va risklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmining mo'tadil o'sishiga amal qilish va kreditlashning faqat bozor shartlari asosida amalga oshirilishiga e'tibor berish alohida ta'kidlab o'tilgan [3]. Shunisi ahamiyatlici, ushbu strategiyada yetarli darajada xizmat ko'rsatilmayotgan va zaif qatlamlarda davlat ishtirokini kuchaytirish va manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy qilish, kamxarj xizmat ko'rsatish nuqtalari tarmog'ini rivojlantirish, shuningdek, respublika yagona moliya tizimining o'zaro to'ldiruvchi qismi sifatida nobank kredit tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali moliyaviy xizmatlar ommabopligrini va sifatini oshirish bo'yicha olib boriladigan ishlar belgilab berilgan.

Shuningdek, amalga oshirilayotgan bank tizimini xususiyashtirish jarayonini jadallashtirish banklarning ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etish, ularning faoliyatini tijoratlashtirish, eng muhimi ishonchini oshirish orqali erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berganligi bank tizimining iqtisodiyotdagi ahamiyati muhim ekanligini ko'rsatib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tijorat banklarida kredit portfeli samarali boshqarish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan va kredit portfeli tushunchasini uning mohiyatiga berilgan ta'riflarda ifodalangan.

Shuningdek, N.Sokolinskaya-kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iborat deb ta'riflaydi va muammoli kreditlarni boshqarish masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. Bu ta'rifa asosiy e'tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit holatini va mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki, bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo'yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit klassifikatsiyasi sifatini aniqlashda muhim omil bo'lishi mumkin. Masalan amerikalik iqtisodchilar Kris J.Barlton, Diana Mak Noton kredit portfeli-bu kreditlarni turkumlashni o'z ichiga oladi deb ta'riflashadi. O'z o'rnida, bank sektorining ichki va tashqi ish faoliyatlarilarning rivojlanishi bilan yanada rivojlanib bormoqda va bu eng katta ta'sir qilgan soha sifatida bank tizimini ko'rsatish mumkin. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan, Xususan, Sh.Z.Abdullaevaning fikriga ko'ra, banklarning muddati o'tgan kreditlari-bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlarning qaytarilishida yo'l qo'yilgan kamchiliklar bo'lib, asta sekin umumiylar aktivlarining standart holatiga tasir qiladi deb aytadi. Uning turli shakllarida kreditorning belgilangan qarzni kech to'lashi yoki to'liq to'lamasligi va bunda vaqt omilining suistemol qilinishi biz yuqorida so'z yuritayotgan masala ob'yekti bo'lib xizmat qiladi. Masalan: nemis iqtisodchi olimi V.Leksisning fikricha, kredit munosabatining yuzaga kelishi uchun qarz beruvchining ishonchi muhim ahamiyatga ega emas, bunda qarz beruvchilar qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatiga ishonchdan ko'ra, ishonchsizlik ruhiyatida bo'ladilar va shuning uchun ham ular o'z manfaatlarining to'liq himoyasini ta'minlash uchun kafolat talab etadilar. V.Leksis ham o'z fikrida bir jihatdan haq, chunki u alohida bir kredit munosabati haqida emas, balki kredit munosabatlarining yig'indisi haqida fikr bildiradi. Tijorat banklarida eng ko'p daromad keltiruvchi operatsiyalarining asosiysi kreditlash operatsiyasidir. Shuning uchun ham mijoz va bank o'rtasida eng avvalo ishonch kredit munosabatining ajralmas qismi sifatida yuzaga kelishi kerak. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda ta'kidlash lozimki, kredit portfeli samarali tashkil etishda tijorat banklarining o'rnini yanada oshirish yuzasidan izlanishlar va tahlillar olib borilishi doimo dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada statistik jadval va ma'lumotlar, analitik taqqoslash, mantiqiy va taqqoslama tahlil hamda mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanilgan. Maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning tijorat banklarida kredit portfeli samarali boshqarish masalalari bo'yicha izlanishlari, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuvlar orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa va takliflar o'rinni olgan.

Tahlil va natijalar. Bankning kredit portfeli-bu bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur asos sanalib, bank tomonidan berilgan jami kreditlarning yig'indisini o'zida ifodalaydi. Shuningdek, banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit portfeli to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biridir. Agarda tijorat banklarida kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar mavjud bo'lsa banklar daromadining kamayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatini belgilaydi.

Bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar sonining ortishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni amalga oshirish banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni taqozo etmoqda. Shuningdek, kredit portfelini auditdan o'tkazish va kredit risklarini boshqarish ham samarali natijani beradi. Kredit portfeli ichki va tashqi auditorlar tomonidan audit tekshiruvidan o'tkaziladi.

Fikrlarimizni quyidagi statistik ma'lumotlar orqali ham ko'rishimiz mumkin. Tijorat banklarining kredit portfelidagi muammoli kreditlarning ulushi 2021 yil 1 yanvar holatiga 2,09 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022 yil 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 3.11 bandga oshib. 5.2% ni tashkil etdi, 2023 yil boshiga esa NPL darajasi 3,6% ga teng bo'ldi. Mahalliy tijorat banklarimizning kredit portfeli 2021 yilda 117,84% ga 2020 yilga nisbatan oshgan. 2021 yil 1 yanvar holatiga tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlar (NPL) miqdori 5 784,83 mlrd. so'mdan iborat bo'lib, 2022 yil 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 16 974,03 mlrd. so'mga yetgan bo'lsa, 2023 yil 1 yanvar holatiga ko'ra NPL ning miqdori 13 992,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Tijorat banklarining kreditlash amaliyotida kreditlashning zamonaviy usullarini qo'llash banklar va mijozlar uchun quyidagi ijobiyligi jihatlarni ta'minlaydi. Banklar jalb qilingan va o'z mablag'laridan samarali foydalanadi, tijorat banklari mijozlari mablag'larini bank talabiga ko'ra kreditni qaytarishga yo'naltirish mumkin. Kredit hujjatlarini rasmiylashtirish tezkor va kredit olish imkoniyatlari yuqori bo'lib ushbu kreditlash shakllarining ko'p maqsadliligi ishlab chiqarish korxonalarining aylanma mablag'larini aylanishini tezlashtiradi va ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlaydi. Mijozlar foydalangan kredit miqdori va muddatiga muvofiq foiz to'lovlarini to'laydi va kreditlash jarayonida resurslardan samarali foydalanish bilan birga bank likvidliliginini ta'minlaydi va boshqaradi.

1-jadval

Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi [6]

Ko'rsatkichlar	1/1/2022		1/1/2023		O'zgarishi, foizda
	mlrd. so'm	ulushi, foizda	mlrd. so'm	ulushi, foizda	
Jami kreditlar	326,386	100	390,049	100	19.5
Sanoat	117,639	36.0	126,647	32.5	7.7
Qishloq xo'jaligi	35,022	10.7	42,096	10.8	20.2
Qurilish sohasi	9,282	2.8	10,400	2.7	12.0
Savdo va umumiyl xizmat	27,406	8.4	28,911	7.4	5.5
Transport va kommunikatsiya	28,708	8.8	29,673	7.6	3.4
Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	3,814	1.2	3,856	1.0	1.1
Uy-joy kommunal xizmati	2,284	0.7	1,888	0.5	-17.3

Jismoniy shaxslar	69,496	21.3	100,949	25.9	45.3
Boshqa sohalar	32,734	10.0	45,630	11.7	39.4

Yuqoridagi 1-jadvalda keltirib o'tilgan 2022-2023 yillarning 01-yanvar holatidagi statistik ma'lumotlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, tijorat banklarining kredit qo'yilmalarining tarmoqlar bo'yicha ulushi 2022 yil sanoatda 01-yanvar holatiga ko'ra 117,639 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil 01-yanvar holatiga ko'ra 126,647 mlrd so'mni tashkil etgan, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 7,7 % ga o'zgargan. Qishloq xo'jaligi sohasida esa 2022 yil 01-yanvar holatiga ko'ra 35,022 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil 01-yanvar holatiga ko'ra 42,096 mlrd so'mni tashkil etgan, 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 20,2% ga o'zgargan. Xususan, jismoniy shaxslarning kredit qo'yilmalari 2022 yil 01-yanvar holati bo'yicha 69,496 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil 01-yanvar holati bo'yicha 100,949 mlrd so'mni tashkil etgan va 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 45,3% ga o'zgargan. Bank aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy o'rinni egallaydi va bank daromadining salmoqli qismi ham aynan mazkur operatsiyalar orqali olinadi. Shu sababli bank kredit portfelining qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bank kredit portfeli samarali boshqarishi uchun, eng avvalo banklarning kreditlash jarayoni to'g'ri tashkil qilinishi zarur. Amaldagi qonunchilikda bank kredit portfeli muntazam ravishda tahlil va audit qilinishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bunda kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosatiga va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonlariga, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilishga muvofiqligini ta'minlashga e'tibor qaratilishi lozim.

Ta'kidlash lozimki, bank tizimiga oid qabul qilingan qarorlar hamda kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini amaliyotga samarali qo'llash oqrqali kreditlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni baholash, ularni o'rganish, tahlil qilish, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qilib borish, muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini shakllantirish, bank kredit siyosati va kreditlash tamoyillari shartlariga rioya etilishini nazorat qilish kabilar muhimligini ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Mazkur keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda ta'kidlash lozimki, tijorat banklari kredit portfeli samarali boshqarishning asosiy maqsadi kredit portfelning risk, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasiga erishish hisoblanadi.

Kredit portfeli tijorat banklarida samarali boshqarishning pirovard maqsadi ushbu portfelning risk, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasiga erishish hisoblanadi hamda tijorat banklarida kredit portfeli samarali boshqarishda bir qator omillar mavjud bo'lib, ularning ayrimlari quyidagilardan iborat:

- tijorat banklarida aktivlar sifati ustidan monitoring olib borish natijasida bank aktivlari bilan bog'liq muammoli holatlarni dastlabki bosqichlarda aniqlab ularni bartaraf etish mexanizmini mustahkamlash;

- tijorat banklarda aktivlarni diversifikatsiya qilib borish va kredit portfeli sog'lomlashtirish orqali tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish;

- kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ijrosini tashkil qilish asosida kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan risklarni baholash, o'rganish, ularni tahlil qilish, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qilish;
- muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini shakllantirish;
- kredit portfelida yaxshi kreditlar ulushi 90 foizdan kam bo'lmasligi, muddati o'tgan kreditlar miqdorini minimallashtirish, kredit portfeli tarkibining tasdiqlangan kredit siyosatiga amal qilishini nazorat qilish kabilarda namoyon bo'ladi.

Respublikamiz tijorat banklari amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda muammolarni mavjudligi kredit portfeli sifatiga va uning barqaror o'sishiga salbiy ta'sir qilmoqda. Mijozning kredit to'loviga layoqatligining to'g'ri baholanishi kreditlarning o'z vaqtida to'la qaytishini ta'minlaydi. Sifatli kredit portfeli shakllantirish va kredit monitoringini puxta tashkil etish va olib borish lozim. Kreditlash operatsiyalarining hajmi ko'pligi bilan birgalikda ularning risklilik darajasi oshib ketmasligi va sifatining yuqori bo'lishi ham lozim. Agarda bank kreditlarining sezilarli darajada katta qismi bir sohada to'planadigan bo'lsa, bu sohadagi salbiy o'zgarishlar kreditning qaytmasligiga, bu esa, o'z navbatida, bank foydasi pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Tijorat banklari sifatli kredit portfeli shakllantirish uchun avvalambor kreditlash jarayonini to'g'ri va sifatli olib borishi zarur. Kreditlar ajratish borasida qarorlar qabul qilishda banklarning kredit qo'mitalari va mas'ul xodimlarining javobgarligini oshirish, kreditlardan foydalanish va qaytarilishi monitoringining mexanizmlarini bir xillashtirish, ular bo'yicha risklarni o'z vaqtida aniqlash, sifatli baholash va bartaraf etish, shuningdek, kreditlar bo'yicha muammoli qarzdorliklarni paydo bo'lishini oldini oluvchi choralar qabul qilish orqali tijorat banklarining kreditlash operatsiyalarini samarali tashkil etish va yuqorida berilgan barcha tavsiyalarni imkon qadar amaliyotga joriy etgan holda ularni takomillashtirish mumkin deb hisoblaymiz.

Адабиётлар/Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi "O'zbekiston-2030 Strategiyasi to'g'risida "gi Farmoni.PF-158-sonli
2. Z.Mamadiyorov, M.Maxmudova, M.Kurbanbekova. Bank ishi. Darslik. T.:Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2021 yil. 158 bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydag'i "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
4. Dustova M. X., Shomurotova S. O. TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI SAMARALI BOSHQARISH //Conferencea. – 2022. – C. 119-121.
5. Dustova M. X., Shomurotova S. O. TIJORAT BANKLARNING KREDIT OPERATSIYALARI VA ULAR HISOBINI TASHKIL ETISH //Conferencea. – 2022. – C. 101-103.
6. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).